

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATIGA  
MOSLASHUVIDA SIBLING MUNOSABATLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
AHAMIYATI**

**Tojiyeva Dilnoza Pardayevna**  
*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf bolalarida o'quv faoliyatining xususiyatlari o'rganilgan. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponetlari: o'quv masalalari, o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat qilish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'limga moslashishida sibling munosabatlarining o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf bolalari, o'quv faoliyati, o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponetlari, ta'limga moslashish, sibling maqomi, sibling munosabatlar.

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, ta'limda o'quvchilar maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug'iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya'ni o'quvchining ta'lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog'liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya'ni o'quvchini o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. O'quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy inson faoliyati va psixikasi – ruhiyatining uzviy bog'liqligi tamoyilini asoslagan edi: psixika faoliyatsiz, faoliyat psixikasiz amal qilmaydi. L.S.Vigotskiyning qarashlarini S.L.Rubinshteyn o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. S.L.Rubinshteynnинг ta'kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur'ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo'lgan motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatları ta'limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o'quvbiluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. A.N.Leontyev esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o'quv faoliyati uchun ham turtki bo'ladi va uni yo'naltiradi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, faoliyat – bu subyektning borliqqa faol munosabatidir. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning eng muhim xususiyatidir. O'tkazilgan psixologik tadqiqotlar natijasida o'quvchilar faoliyati taraqqiyot

darajasini o'rganish, ta'limning psixologik asoslarini bayon qilish, ularda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, qobiliyat va layoqatni tahlil qilish, o'zlashtirish, o'quvchilarning psixik rivojlanishini bayon qilish, ijodiy faoliyat muammolarini yoritish kabi psixologik hodisalar tadqiq qilingan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o'qituvchi juda muhim o'rinni egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o'quvchilarning o'quvbiluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni stimullashtirish ularda o'quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko'ra kuchliroq bo'lishiga xizmat qiladi. Biz bilamizki pedagogik mahorat talab etadi. Faoliyat-tarbiyalash va o'qitish- keng ma'noda aloqa qilish bilan singib ketgan. Shunday qilib pedagogik faoliyat -bu o'qituvchining o'zini tutishi, uning jarayonida talabalar bilan munosabatlari namoyan bo'ladi, o'zgartiriladi va rivojlanadi.

Oila bola hayotida ota-onadan keyin uning siblinglari muhim rol o`ynaydi. Chunki uning aka-opalari o`zidan oldin maktabga borishadi, o`qib-o`rganishdi. Oilada kichik farzandlar katta farzandlarning izidan aka yoki opasi kabi tarbiyalanib boradi. Aka yoki opalari maktabdan o`rgangan bilimlari asosida uyda o`zidan kichik tug`ushganlariga ta`lim va tarbiya berishdi. Oilada kichik farzandlar ham katta farzandlarga ergashib ular qanda qiziqish bilan o`qishsa ularda ham shunday qiziqishlar kuzatiladi. O`zbek millatida ko`p farzadlilik azaldan meros bo`lib kelgan. O`tgan asrlarda o`zbek oilalarida 5-10 nafar farzand ko`rish odatiy hol hisoblangan. Ko`p farzandli oilalarda kata farzandlar o`zlaridan kichik tug`ishganlariga maktab ostonasiga qadam qo`yishganida o`zlarining bilimi va tajribalari bilan yordam berib kelishgan. Shuning uchun ham oilada farzandlarining o`qishlarida ota-onalar ko`p qiyinchiliklarga duch kelishmagan. Lekin shuni aytib o`tish kerakki, to`ng`ich farzandlarni maktabga tayyorlov, boshlang`ich sinflarda va eng muhimi maktabni bitirish chog`ida ota-onalar ko`plab qiyinchiliklarga uchrashadi. Bunga sabab bolani maktabga tayyorlov hamda maktab davridagi fanlarga yordamlashish, yo`l yo`riqlar ko`rsatish bo`yicha ularda bu ko`nikmalarning shakllanmaganidadir. Keyingi farzandlarida bu ko`nikma qisman shakllanganligi evaziga ko`p qiyinchiliklarga uchrashmaydi, katta farzand ham o`z navbatida ota-onasiga ukasining o`qishlarida yordamlashadi. Doim maktabda yaxshi, bilimli o'quvchining o`zidan keyingi ukasi yoki singlisi ham o`zi singari fanlarni yaxshi o`zlashtiruvchi o'quvchi sifatida taniladi. Har bir bola faqat o`ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan, komil shaxs sifatida shakllantirishda o'qituvchilarning ijodkorligi, oz sohasi bo`yicha bilimlarini doimo oshirib borishi, so'nggi yangiliklarni o`zining pedagogik faoliyatida qo'llay olishlari, bir so'z bilan aytganda ularning kreativlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kreativlik ayniqsa O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasidagi strategik yo'lida juda ham muhimdir. Kreativ salohiyat ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilangan. obyekti hisoblanadi.

1. Avdeeva AG, Faoliyatga tayyor ba'zi ixtisoslik va ijtimoiy yondashuvi. M., 2008 yil.
2. Andreev VI Pedagogika: darslik. ijodiy kurs. o'zo'zini rivojlantirish. Qozon., 2000 yil.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik - T:Fan va texnologiya. 2008.
4. Shoumarov G'. B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi.T.: Sharq, 2009.
5. Cicirelli, V. G. (1994). "Sibling relationships over the life course." Paper presented at the 49th Annual Scientific Meeting of the Gerontological Society of America, Atlanta.
6. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
7. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
8. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
9. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.
- 10.Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
- 11.Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sind oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatları. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
- 12.Имонова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
- 13.Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
- 14.Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
- 15.Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
- 16.Иманов, Б., & Имонова, М. Б. К. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.

17. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
18. Неъматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
19. XUDOYQULOVA, S., & SAYDALIYEVA, M. (2023). The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child. Eurasian Scientific Herald, 21, 54-58.
20. Sh, K. (2022). PSYCHOLOGICAL METHOD OF DEVELOPING CHILDREN'S BEHAVIOR AND EMOTION. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 107-112.